



ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARGA IMO-ISHORA TILINI O‘RGATISH

Rustamova Raxima Ruziyevna

Pedagogika fanlari nomzodi, oliy toifali surdopedagog. Tel.:975425555

Annotatsiya: *Mazkur qo‘llanmada eshitishida nuqsoni bo‘lgan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar hayotida o‘zbek imo-ishora tilining o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Imo-ishora tilining lingvistik tuzilishi, uning turlari haqida umumiy ma‘lumotlar berilgan. Daktilologiya va imo-ishora leksikasini o‘zlashtirish bo‘yicha ish usullari va turlari taqdim etilgan.*

Kalit so‘zlar: *daktilologiya, kognitiv, akkumulyativ, nominativ, assotsiatsiya, signifikativ, manual imo-ishoralar, visual, verbal, kalkalovchi.*

Maqsad: *Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitishda imo-ishora tizimini yaratish. U nutqni “bezash” vositasi emas, balki muloqot va tafakkurning asosiy to‘qimasidir.*

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-oktabrdagi PQ-407-sonli “O‘zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirining 2022-yil 26-oktabrdagi 333-sonli “O‘zbek imo-ishora tili va Brayl alifbosini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi buyrug‘i va boshqa hujjatlarda ta‘lim mazmunini modernizatsiyalash, jarayonni metodik va didaktik ta‘minlash vazifalari belgilab berildi.

Ko‘rish, eshitish va nutqida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning savodxonligini oshirish, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga ko‘rsatiladigan ta‘lim xizmatlari sifatini yaxshilash hamda O‘zbekiston Respublikasining “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida” gi Qonun ijrosini ta‘minlash maqsadida bir qancha vazifalar yuklatildi. O‘zbekistonda maxsus pedagogika va inklyuziv ta‘lim sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, erishilgan yutuqlar va qo‘yilgan vazifalarni bajarish, inklyuziv ta‘limni rivojlantirish, alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Ushbu qo‘llanma eshitishida nuqson aniqlangan bolalar bilan muloqot va tarbiya jarayonini qiyinlashtiruvchi til to‘sig‘ini bartaraf etishga yordam beradi.

Sog‘lig‘ida cheklovlari bo‘lgan shaxslarni, jumladan eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ta‘lim bilan qamrab olish, O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining ta‘lim sohasidagi ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Surdopedagogika g‘oyalari ko‘ra, kar va zaif eshituvchi bolalarni o‘qitish va tarbiyalashning asosiy vositasi og‘zaki nutq hisoblanadi. Og‘zaki nutqning shakllanishi shaxsning kamol topishi, ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga integratsiyalashuv imkoniyatlarini bevosita belgilaydi.

Shu bilan birga, ilmiy jamoatchilik hamda karlar jamiyati imo-ishora tilining kar insonlar uchun o‘ziga xos va muhim muloqot vositasi ekanligini tan oladi. Imo-ishora tili

bolaning yanada to‘liq rivojlanishiga xizmat qiladi hamda erta yoshda atrof-muhitni anglashda o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini bajaradi.

Imo-ishora tili- o‘ziga xos lug‘at va grammatikaga ega noyob lingvistik tizim. Imo-ishora tili- qo‘l, tana turli harakatlari va boshqa xil imo-ishoralar yordamida fikr almashuv, aloqa qilishdir.

Insonlar bilan muloqot har qanday bolaning dunyoqarashini boyitadi, ota-onalarini, qarindoshlarini, tengdoshlarini, pedagog va tarbiyachilarini yaxshiroq tushunishiga imkon yaratadi, o‘z fikrlarini ifodalash va atrofidagi olam haqida bilimlarini kengaytirishga yordam beradi. Eshitish qobiliyatining pasayishi tabiiy muloqotning buzilishiga, nutq rivojlanishining izdan chiqishiga olib keladi.

Muloqotdagi ushbu cheklovlar imo-ishora orqali muloqot yordamida qoplanadi, bu esa bola uchun oila a‘zolari, bolalar bog‘chasi va maktab jamoasi, do‘stlari bilan o‘zaro aloqani yo‘lga qo‘yish imkonini beradi hamda umuman olganda, jamiyat bilan to‘laqonli munosabatni ta‘minlaydi.

Huquqiy maydonda ham eshitishida nuqsoni bo‘lgan fuqarolarning imo-ishora tilidan foydalanish huquqi mustahkamlab qo‘yilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida eshitishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarning imo-ishora tilidan foydalanish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining tenglik va ta‘lim olish prinsiplari, shuningdek “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun hamda BMT Konvensiyasi asosida huquqiy jihatdan kafolatlangan. Har bir insonning ona tilidan foydalanish, muloqot, tarbiya, ta‘lim va ijod tilini erkin tanlash huquqi belgilangan.

Surdopedagogika hamda tiflosurdopedagogika maxsus ta‘limda turli muqobil muloqot vositalaridan foydalanishni nazarda tutadi. Jumladan, eshitish va eshitish-ko‘rish funksiyalarida nuqsoni bo‘lgan bolalarni o‘qitish jarayonida o‘zbek imo-ishora tilidan yordamchi vosita sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

Kar bolalarni o‘qitishning boshlang‘ich bosqichida daktilologiyadan — daktil nutq (barmoqlar alifbosi)dan foydalanish ko‘zda tutiladi. Daktil nutq yozma nutqqa o‘xshab ketadi, chunki daktilologiya orqali gap tuzish grammatik qonunlarga asoslanadi. Ta‘lim jarayoniga og‘zaki nutq ham bosqichma-bosqich kiritiladi, og‘zaki-daktil talaffuz amalga oshiriladi.

II. TIL VA NUTQ

Til va nutq tushunchalari.

Ma‘lumki, til - insoniy muloqotning eng muhim vositasidir. Tilsiz insoniy muloqot mumkin emas, muloqotsiz esa jamiyat mavjud bo‘la olmaydi. Demak, jamiyat bo‘lmasa, fikrlovchi inson ham bo‘lmaydi, ya‘ni insonning voqelikni va undagi o‘zini anglash jarayoni shakllanmaydi. Til faqat insonlarga xos bo‘lib, u ikkinchi signal tizimi hisoblanadi. Aynan til insonni hayvonot olamidan ajratib turadi va uning fiziologik, psixik hamda ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi.

Shu bilan birga, “til” va “nutq” tushunchalarini farqlash qabul qilingan. Til - murakkab tizimli hodisa hisoblanadi. Har bir til o‘ziga xos leksik tarkibga, ya‘ni ma‘noli so‘zlar tizimiga ega. Til muayyan tovush (fonetik) tizimi, faqat shu tilga xos bo‘lgan xususiyatlarga, shuningdek so‘z va so‘z birikmalarining turli shakllaridan tashkil topgan grammatik tizimga ega.



Tilning mustaqil belgisi - bu soʻzdir. Shuning uchun tilning asosiy vazifasi har bir soʻzga muayyan maʼnoni biriktirishdan iborat. Nutq esa tildan farqli ravishda - tilning amalda qoʻllanishi, yaʼni til vositasida amalga oshadigan ogʻzaki muloqot jarayonidir. Nutq faqat insonlarga xos boʻlgan faoliyat boʻlib, u oʻquv, mehnat faoliyati, jamoa aʼzolarining oʻzaro muloqoti, hamkorlikdagi faoliyatni muvofiqlashtirish va boshqa jarayonlar bilan chambarchas bogʻliqdir.

Til va nutqning funksiyalari.

Til oʻz tabiatiga koʻra koʻp funksiyali boʻlib, bir qator vazifalarni bajaradi, jumladan:

- a) kommunikativ funksiya - odamlar oʻrtasida muloqot vositasi boʻlib xizmat qiladi;
- b) bilish (kognitiv) funksiyasi - insonning tafakkuriy va intellektual faoliyati bilan bogʻliq (diqqat, idrok, xotira, fikrlash, tasavvur, nutq, ijro funksiyalari);
- d) akkumulyativ funksiya - axborotni saqlash va uzatishga xizmat qiluvchi (masalan, solnomalar, memuarlar, hujjatlar, gazetalar, badiiy va ilmiy adabiyotlarda) shuningdek, xalq ogʻzaki ijodida.

e) nominativ funksiya - predmet yoki hodisani soʻz orqali nomlash.

Nutq uchta asosiy funksiyani bajaradi:

- a) signifikativ funksiya (belgilash) - muloqot jarayonida oʻzaro tushunish gapiruvchi va tinglovchi tomonidan predmetlar va hodisalarning bir xil belgilanishiga asoslanadi;
- b) umumlashtirish funksiyasi - bunda soʻz nafaqat alohida bir predmetni, balki oʻxshash predmetlar guruhini ham ifodalaydi va ularning muhim belgilarini oʻzida mujassamlashtiradi;
- d) kommunikativ funksiya - axborot, munosabat, emotsiya va his-tuygʻularni uzatish bilan bogʻliq.

Til va nutqda signifikativ funksiyaning roli

Til belgilar tizimi sifatida ishlaydi:

- soʻz - maʼlum tushunchaning belgisi,
- imo-ishora - maʼlum maʼnoning vizual belgisi,
- ramz - umumlashtirilgan belgi.

Masalan:

- “daraxt” - bitta daraxt emas, balki barcha daraxtlar tushunchasi,
- “uy” - aniq uy emas, yashash joyi tushunchasi.

Bu - signifikatsiya.

Bolalarda signifikativ funksiya qanday rivojlanadi?

Bola rivojida bosqichlar:

1. Predmetni koʻradi.
2. Nomlaydi (nominativ).
3. Belgilarini ajratadi.
4. Umumlashtiradi (signifikativ).

Masalan:

- olma → qizil, yashil, shirin, yeyiladi → meva

Eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarda:

- signifikativ funksiya vizual-harakat asosida shakllanadi,
- imo-ishora va daktil nutq maʼno tashuvchi belgi boʻlib xizmat qiladi.

Masalan:

- “qizil” imo-ishorasi → rang tushunchasi,
- “katta–kichik” imo-ishoralari → miqdor va sifat tushunchalari.

Kognitiv va akkumulativ bilan bog‘liqligi

- Kognitiv — tushunadi, tahlil qiladi
- Akkumulativ — ma’nomlarni saqlaydi
- Signifikativ — belgiga ma’no yuklaydi

Uchchovi birga ishlaganda ongli nutq shakllanadi.

III. Nutq turlari.

Kar shaxslarning imo-ishora orqali muloqoti tushunchasi.

Nutq faoliyatida ikki asosiy nutq turi qo‘llaniladi: og‘zaki va yozma nutq. Og‘zaki nutq dialog (suhbat) yoki monolog shaklida kechadi, yozma nutq esa so‘zning tovush tarkibini, ya’ni yozma nutq belgilarini ifodalaydi.

Muloqot nutqiy akt sifatida ikki tomonlama jarayondir: biri gapiradi, ikkinchisi esa eshitish idroki orqali tinglaydi. Bu uzviy birlik o‘zaro tushunishni ta’minlaydi. Ammo inson eshitmasa-chi? Agar karlik (birlamchi nuqson sifatida) nutqni egallashdan oldin yuzaga kelsa, buning oqibatida bolada nutqning rivojlanmasligi yoki buzilishi (ikkilamchi nuqson sifatida) vujudga keladi.

Bunday holatda nutqni maxsus yaratilgan sharoitlarda - kar va zaif eshituvchi bolalar uchun mo‘ljallangan korreksion bolalar bog‘chalari va maktablarda- o‘rgatish zarur bo‘ladi. Bu muassasalarda ta’lim-tarbiya jarayonida surdopedagogika fanining zamonaviy metod va usullari qo‘llaniladi.

Agar eshituvchi inson uchun so‘z fikrni ifodalashning kuchli vositasi bo‘lsa, kar inson uchun fikrni ifodalash imo-ishora orqali amalga oshadi. Qo‘l (manual) imo-ishoralari tashqi olamdagi predmet va hodisalarning obrazli ifodasi hisoblanadi.

Imo-ishora tili (imo-ishora nutqi) ham tilga xos ayrim funksiyalarni bajaradi: birinchidan, muloqot vositasi sifatida namoyon bo‘ladi; ikkinchidan esa, tafakkur quroli, fikrni ifodalash shakli bo‘lib xizmat qiladi. “Qo‘llar bilan gapirish — ma’lum darajada qo‘llar bilan fikrlashdir...” (Базоев В.З., Паленный В.А. Человек из мира тишины)

Shunday qilib, karlarning imo-ishora nutqi eshitish va og‘zaki (so‘zlashuv) nutqni idrok etishning yo‘qligini o‘ziga xos tarzda kompensatsiya qiluvchi vosita hisoblanadi. So‘zli til va imo-ishora tilining asosiy umumiy vazifasi bitta - insonlar o‘rtasida muloqotni ta’minlashdir.

Imo-ishora nutqining tizimi va turlari.

Muloqotni yo‘lga qo‘yishda kar insonlar ikki xil, tubdan farq qiluvchi muloqot tizimidan foydalanadilar:

- daktilologiya (daktil nutq, barmoq alifbosi);
- imo-ishora tili (imo-ishora belgisi, imo-ishora leksikasi).

Ularni birlashtiruvchi asosiy jihat - axborotni uzatish va qabul qilish usulidir. Eshitmaydigan suhbatdosh turli xil barmoq kombinatsiyalari va qo‘l imo-ishoralari orqali axborotni vizual (ko‘rish) yo‘li bilan qabul qiladi. Daktil nutq - bu maxsus kinetik tizim bo‘lib, qo‘l harakatlari va barmoqlarning holati milliy tillar alifbosidagi harflarni ifodalaydi. Daktil (barmoq) belgilar majmuasidan foydalangan holda gapiruvchi og‘zaki til grammatikasiga

amal qiladi, shu bois daktil nutq og‘zaki nutqning yozma shakliga yaqin bo‘lib, verbal (so‘zli) kommunikatsiya turiga kiradi.

Karlarning imo-ishora orqali muloqot tizimi imo-ishora nutqining ikki xil ko‘rinishini o‘z ichiga oladi:

- kalkalovchi imo-ishora nutqi;
- o‘zbek imo-ishora tili (so‘zlashuv imo-ishora nutqining analogi).

O‘zbek imo-ishora tili esa o‘ziga xos, mustaqil va noyob lingvistik muloqot tizimi hisoblanadi. U o‘zining alohida tuzilmasi va leksik tarkibiga ega. O‘zbek imo-ishora tilida muloqot jarayonida og‘zaki so‘zlashuv (artikulyatsiya) qo‘llanilmaydi.

O‘ZBEK DAKTILOLOGIYASI

Daktilologiya (barmoq alifbosi) tushunchasi.

O‘zbek daktil alifbosining xususiyatlari.

Kar bolalarni umumta’lim maktablarida o‘qitish metodikasi ularning ta’limining boshlang‘ich bosqichida daktilologiya — barmoq alifbosi va daktil nutqdan foydalanishni nazarda tutadi. Daktil nutq yozma nutqqa o‘xshash bo‘lib, chunki daktilologiya orqali gap tuzish orfoepik emas, balki grammatik qonunlar asosida amalga oshiriladi va u o‘qitish jarayonida yordamchi vosita hisoblanadi. Daktil qilish, odatda, og‘zaki nutq bilan birga olib boriladi va aniq artikulyatsiya bilan kuzatiladi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, daktilologiya (daktil nutq) — maxsus kinetik tizimdir. “Daktilologiya” atamasi qadimgi yunoncha daktylos + logos so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, “barmoq + so‘z (ta’limot)” degan ma’noni anglatadi va barmoq alifbosi tushunchasiga mos keladi. Bundan tashqari, barmoq alifbosi qo‘l alifbosi deb ham yuritiladi, chunki bu muloqot usulida qo‘l harakatlari va barmoqlarning holati atrof-muhit hodisalarini emas, balki milliy tillar alifbosidagi harflarni ifodalaydi. Bu harflar so‘zlarning elementlari, ya’ni yozma nutq birliklari hisoblanadi.

Shuningdek, quyidagi tushunchalar ham mavjud: daktil alifbo, daktil harf, daktil belgi yoki daktilema — bular alifbodagi harflarning daktil shaklda ifodalanishidir. Daktil nutq — bu barmoq alifbosi, ya’ni daktilologiya orqali amalga oshiriladigan muloqotdir.

Daktillashning shartlari:

- v o‘ng qo‘l bilan «so‘zlash» kerak;
- v qo‘lni ko‘krak qafasi darajasida tutiladi;
- v o‘ng tirsak o‘ng yonga siqilgan;
- v qo‘l bilan «gaplashganda», asosan, barmoqlar harakatlanishi lozim.

Bunda yozish va o‘qishdagi jarayon bilan ma’lum umumiylik ko‘zga tashlanadi: so‘zlarni daktillab, yozuv jarayoni o‘ziga xos tarzda takrorlanadi, uni idrok qilayotgan bola esa o‘qish jarayonini takrorlaydi.

Daktillash qoidalari:

1. Daktillovchi qo‘l tirsakda egilib, biroz oldinga olib boriladi va ko‘krak darajasida, artikulyatsiyani to‘sib qo‘ymaydi. Kaft yelka darajasida. O‘ng va chap qo‘l bilan daktil qilish mumkin, lekin buni o‘ng bilan qilish odatda qabul qilinadi, chunki chap qo‘l bilan o‘qish biroz noqulay.

2. Daktillash artikulyatsiya bilan birga keladi, bu matnni idrok etish va tushunish darajasini oshiradi.

3. Barmoq izlarini olishda qo‘lning holati suhbatdoshga kaft bilan yoki kaftning chetiga kichik barmoq tomondan qaraydi. Qo‘lning o‘zi harakatsiz, faqat kaft harakatchan.

4. Daktillash imlo me‘yorlariga muvofiq amalga oshiriladi. Tinish belgilari ko‘rsatilmaydi.

5. Daktillashda ikki baravar undoshlar ikki baravar undoshni o‘ngga yoki chapga siljitish orqali ko‘rsatiladi.

O‘zbek qo‘l alifbosida 29 ta daktil belgi mavjud bo‘lib, bu o‘zbek tili alifbosidagi harflar soniga to‘liq mos keladi. Har bir daktilema (barmoq harfi) o‘zbek tili harfining grafemasini ifodalaydi.

O‘zbek daktilologiyasida harflarni ifodalash ikki xil usulda amalga oshiriladi:

- barmoqlarning konfiguratsiyasi (joylashuvi) orqali;
- qo‘l panjasining harakati orqali.

Daktil qilish texnikasi va qoidalari.

1. O‘zbek daktilologiyasi bir qo‘lli bo‘lgani sababli, odatda daktil qilish bitta qo‘l — o‘ng qo‘l bilan amalga oshiriladi.

2. Qo‘l panjasi suhbatdosh tomonga kafti bilan qaratilgan bo‘lishi kerak.

3. Qo‘l tirsak bo‘g‘imida bukilgan va biroz oldinga chiqarilgan bo‘lishi kerak;

4. Daktil qilish vaqtida qo‘l harakatsiz qoladi, faqat daktil belgilarni uzatuvchi qo‘l panjasi harakatda bo‘ladi.

5. Daktil qilish silliq va uzluksiz olib boriladi.

6. Daktil qilish imlo me‘yorlariga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Harfiy daktil belgilarni ko‘rsatish aniq va ravshan bo‘lishi shart.

8. Daktil qilish artikulyatsiya bilan birga olib boriladi.

9. Daktil qilishda so‘zlar orasida pauzalar (oraliqlar) saqlanishi kerak.

10. Iboraning oxirida pauza (to‘xtalish) qilinadi.

Kar bolalarni o‘qitish jarayonida daktilologiya va imo-ishora tilining ahamiyati.

Daktilologiya va imo-ishora tilini o‘rganish pedagog, tarbiyachi, ota-onalarga quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- bolalar bilan kommunikativ aloqalarni o‘rnatish, oilada til tizimlari turlicha (og‘zaki va imo-ishora) bo‘lishiga qaramay, o‘zaro tushunishni ta‘minlaydi;

- o‘zbek imo-ishora tili orqali bolalarning umumiy rivojlanishiga ko‘maklashadi;

- o‘zbek imo-ishora tili yordamida ayrim leksik ma‘nolarni to‘ldirish, ochib berish va aniqlashtirish, bolaning til vositalarining funksional vazifasini yaxshiroq tushunishiga imkon yaratadi;

- bilimlarni shakllantirish va kengaytirish, atrof-muhitni anglashga yordam beradi (tushuntirish, bolaning savollariga javob berish va boshqalar);

- oilaviy an‘analarni singdirish, axloqiy-ma‘naviy va umumiy madaniy qadriyatlarni shakllantiradi;

- bolalarning kelajagini belgilashda faol ishtirok etadi (ayniqsa kasb tanlash, o‘z oilasini barpo etish masalalarida);

- jamiyat va mamlakatni rivojlantirishda faol ishtirok etishga tayyor bo‘lgan, umummilliy qadriyatlarga ega fuqaroni tarbiyalaydi.

Umuman olganda, o‘zbek imo-ishora tilini bilish pedagoglarga, tarbiyachilarga, otalarga bolalar hayotida ta’lim-tarbiya va rehabilitatsiya jarayonlarining faol ishtirokchisiga aylanish imkonini beradi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ikki til tizimi — og‘zaki va imo-ishora tillaridan birgalikda foydalanish kar fuqarolarning kelgusida muvaffaqiyatli ta’lim olishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratadi. Bu, o‘z navbatida, o‘zbek imo-ishora tili tarjimoni ishtirokida o‘quv jarayoni tashkil etiladigan o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida kasb egallash jarayonining samaradorligini ta’minlaydi.